

## SODDA GAPLARNI O'QITISHDA MUMTOZ MATNLARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7872081>

**Nematova Dilrux Dustmurodovna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Xorijiy tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti*

**Normo'minov Sherzod To'ychiyevich**

*Ilmiy rahbar:F.f.d(Phd)*

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada asosiy e'tibor ona tili darslarida matnlardan foydalanishga qaratilgan. Shuningdek, mumtoz matnlardan foydalanishning afzalliklari, tahlil metodlari ustida nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Umumiy o'rta ta'limning 8-sinfida "Sodda gaplar" mavzusini o'tish jarayonida mumtoz matnlardan foydalanishning ustuvor jihatlari ochib berilgan. Adabiy til me'yorlari va ularning bugungi kun insonlar hayotidagi o'rniga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

### **Kalit so'zlar.**

*adabiy matn, kontekst, mumtoz matn, og'zaki va yozma nutq, shaxsiy o'sish va intellektual rivojlanish, matn tahlili, lug'at.*

## ПРИОРИТЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАССИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОСТЫМ ПРЕДЛОЖЕНИЯМ

### **Аннотация.**

Данная статья посвящена использованию текстов на уроках родного языка. Были также проведены теоретические исследования достоинств использования классических текстов и аналитических методов. В 8 классе общеобразовательной школы приоритетные аспекты использования классических текстов определяются при прохождении темы «Простые предложения». Подробно рассмотрены нормы литературного языка, их место в жизни народа сегодня.

### **Ключевые слова.**

*художественный текст, контекст, классический текст, устная и письменная речь, личностный рост и интеллектуальное развитие, анализ текста, лексика.*

---

## THE PRIORITY OF USING CLASSIC TEXTS IN TEACHING SIMPLE SENTENCES

### **Abstract.**

*This article is devoted to the use of texts in mother tongue classes. Theoretical studies have also been conducted on the merits of using classical texts and analytical methods. In the 8th grade of general secondary schools, the priority aspects of using classic texts are determined when passing the topic "Simple Sentences". The standards of the literary language, their place in the life of the people today are considered in detail.*

### **Keywords.**

*artistic text, context, classical text, oral and written speech, personal growth and intellectual development, text analysis, vocabulary.*

Ona tilini o'rgatishdan asosiy maqsad og'zaki va yozma savodxonlikni shakllantirish va til bilimini rivojlantirishdan iborat ekanligi hech birimizga sir emas. Adabiyot mazmunini esa fan sifatida badiiy asarlarni o'qish va matnli o'rganish tashkil etadi. Ammo til ta'limini adabiyotshunoslikdan ayro o'rganish mumkin emas. Ona tili va adabiyot fanlarini o'quvchiga o'rgatishdan maqsad ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ekanligi ham fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi .

Adabiy matnlar har doim til darslari uchun muhim material manbai bo'lib kelgan, chunki ular haqiqiy kontekstlarda tildan keng foydalanishni namoyon etadi. Ta'kidlash joizki, badiiy matnlar tilni o'qitishning sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlari uchun asosiy o'quv materiallarini to'ldirish uchun qimmatli manbadir. Til o'rgatishda adabiyotdan foydalanishga bo'lgan qiziqish uchta o'zaro bog'liq asosida shakllandi: haqiqiylik, madaniyat va shaxsiy o'sish

Birinchi, badiiy matnlar tilni rivojlantirish va o'qitish jarayonini rag'batlantirishda axborot materiallaridan ko'ra foydali bo'lishi mumkin, chunki ular tilni tushunish uchun haqiqiy kontekstni ta'minlaydi. Grammatik tuzilmalar va so'z birikmalarining haqiqiy misollarini o'z ichiga olgan badiiy matnlar o'quvchilarning barcha til ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Ikkinchi, tilni o'rgatishda adabiyotdan foydalanish, til haqida madaniy ma'lumot berishning afzalliklariga ega. Chunonchi, ona tili darslarida tilning turli bosqichlariga oid matnlardan foydalanish o'quvchi nutqiy savodxonligi va ma'naviy saviyasini oshiradi, unda tilni madaniy meros sifatida qadrlash tuyg'usi

rivojlanib boradi. Badiiy matnlar chet tilini o'rganuvchilarning mamlakat va va u yerda yashovchi xalqning tili, o'rganilayotgan odamlar haqidagi tasavvurini oshiradi.

Nihoyat, adabiyot o'quvchilarga boshqa madaniyatlar, jamiyatlar va mafkuralarni tushunishga va qadrlashga imkon berganligi sababli, u shaxsiy o'sish va intellektual rivojlanishni rag'batlantiradi. O'quvchilar yosh va psixologik imkoniyatlariga mos ravishda matnga baho berishi, matn asosidagi topshiriqlarni mustaqil bajarib borishi mumkin bo'ladi.

Baxtin (XX asrning mashhur mutafakkiri): "Matn bo'lmagan joyda tadqiqot va tafakkur obyekti yo'q", - degan edi. Badiiy matnни yaxlit idrok etish va tushunish, matnни tahlil qilish va talqin qilish qobiliyati quyidagi faoliyat turlariga asoslangan holda bo'lishi mumkin:

- turli janrdagi badiiy asarlarni ongli, ijodiy, ifodali o'qish;
- qayta hikoya qilish (batafsil, qisqa, izoh elementlari bilan, ijodiy topshiriq bilan);
- savollarga javoblar berish;
- matnни tahlil qilish va talqin qilish;
- rejalar tuzish;
- qahramonning xarakterini ochib berish;
- matnga sharh yozish;
- insho yozish.

Ona tili darslarida matn bilan ishlashning maqsadi tilning qurilish qonuniyatlarini tushunish, tilning stilistik, fonetik, morfologik, sintaktik va imlo resurslari bilan tanishishdan iboratdir. Bu maqsadlarga quyidagi usullardan foydalanish jarayonida erishiladi: matndan jumlar chegaralarini topish, matnни boblarga ajratish, deformatsiyalangan matnни tiklash, parchalardan matn yig'ish, mavzuni, asosiy g'oyani aniqlash, matnни davom ettirish, har xil uslubdagi, har xil nutq turidagi matnlarni yaratish.

Ona tili darslarida nega aynan mumtoz matnlar ustida ishlash kerak? Mumtoz matn ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib, undan ko'zlangan maqsad ta'limni tarbiya bilan birga olib borish, o'quvchining jamiyatda shaxs bo'lib shakllanishida yordam berishdan iboratdir. Bolaning ongi rivojlanishi bilan birga uning lingvistik bilimlari ham kengayadi, sof turkiy so'zlarni, arxaik (eskirgan) so'zlar, fors tilidan kirib kelgan so'zlarni bir biridan farqlashga

o'rganib boradi. Chunki, mumtoz adabiyot namunalarida ana shunday leksik birliklarni uchratish mumkin.

O'quvchining qobiliyati o'qish miqdori bilan emas, balki matn ustida mulohaza yuritish, savollar berish, javob topish va berilgan matnni tushunishi bilan o'lchanadi. Bu o'quvchi taassurotidan asar muallifiga, o'z matningizni yaratishga olib boradigan yo'l. O'qishning faol shakllari bu yo'lni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi, bunda o'quvchilarning mustaqillik darajasi oshadi va har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Matnni tahlil qilish bo'yicha ishlar ona tili darslarida 5-sinfdan boshlanadi va yoshi va olgan bilimlarini hisobga olgan holda 11-sinfgacha turli xil metodlardan foydalanilgan holda davom etadi. O'quvchilar lingvistik murakkab matn tahliliga moslashtirib boriladi.

Jumladan, biz o'rganayotgan 8-sinf ona tili darsligida ham o'quvchilarning yosh va psixologik imkoniyatlariga, qolavesa, berilgan mavzuning mazmuni va maqsadiga mos ravishda bir qancha mumtoz matnlardan foydalanish tavsiya etilgan. Xususan, "Gapning ifoda maqsadi" mavzusidan so'ng "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash" darsi berilgan bo'lib, unda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni tarkibiga kiruvchi "Talab vodiysi" matnining ikkinchi qismi bilan ishlash tavsiya etilgan. Mazkur matn bilan ishlash jarayonida matnni aruz vazni qoidalariga mos holda ifodali o'qish, berilgan izohlardan ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini aniqlash, har bir bayt mazmunini nasriy bayon qilishga tayyorlanish, berilgan parchani oldingi darslarda berilgan qism bilan taqqoslash hamda talab vodiysi haqida xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosalarni sinfda o'zaro muhokama qilish, guruhlariga bo'linib, matndagi yangi so'zlarni "Qayta xotirlash" metodi orqali o'rganish singari topshiriqlar berilgan. O'qituvchi bunga qo'shimcha tarzda, o'z ijodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli xil o'yin va topshiriqlardan foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari, mazkur darslikda "Sodda gap. Gap bo'laklari" mavzusidan so'ng yana "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash" darsi berilgan bo'lib, bunda Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan parcha keltirilgan bo'lib, mazkur matn bilan ishlash jarayonida matnni diqqat bilan o'qib, unga sarlavha tanlash, matndan olingan xulosalarni 2-3 jumlada ifodalash, berilgan so'zlardan matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshlarini aniqlash singari topshiriqlar tavsiya etilgan. O'qituvchi bunga qo'shimcha tarzda ajratilgan so'zlarning ma'nodoshlarini topib, ma'nodoshlik qatori hosil qilish, matnni davom

ettirish, matnga mos annotatsiya tayyorlash singari topshiriqlardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'pchilik darsliklarimizda "Matn va lug'at bilan ishlash" xarakteridagi darslar uchun quyidagi vazifa va topshiriqlarni uchratishimiz mumkin:

- a)matnga sarlavha qo'ying;
- b)matnning asosiy g'oyasini aniqlang;
- d)matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang;
- e)matnning maqsadiga ko'ra turini toping;
- f)tushub qoldirilgan harflarni kerakli o'ringa joylashtiring;
- g)belgilangan so'zni fonetik tahlil qiling;
- h)matndan epitetlarni toping va yozing;
- i)ma'nodosh yoki antonim so'zlarni ajratib oling;
- j)matnni morfologik tahlil qiling

Shu va boshqa bir qator topshiriqlar orqali badiiy matndan til ta'limida foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars davomida foydalanilgan har qanday mumtoz asar namunasi bir qancha sabablarga ko'ra tanlanadi. Birinchidan, matnni tanlashda uning soddaligi va til unsurlarining aniqligiga e'tibor beriladi. Biroq, til hali ham zamonaviy va tabiiy. Ikkinchi sabab, mumtoz adabiyotda o'quvchilar har doim aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan umumiy mavzular (sevgi va do'stlik, oilaviy munosabatlar, avlodlar orasidagi farq) mavjud. Nihoyat, aksariyat mumtoz asarlar boblarga bo'linganligi bu ishni tartibga solish va rejalashtirishni osonlashtiradi. Ish jarayonida biz adabiyot lug'at va grammatikani mashq qilish uchun katta imkoniyatlar berishini ko'rishimiz mumkin. Bu o'quvchilarni muhokama qilish va fikr almashishga undaydi, shu bilan ularning tafakkurini rivojlantiradi va nutq qobiliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, hikoya qilish, tasniflash, taqqoslash va bahslashish asoslangan vazifalar o'quvchilarning yozish qobiliyatini rivojlantiradi. Nihoyat, mumtoz matnlar o'quvchilarga til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun norasmiy, ammo qo'llab - quvvatlovchi muhitni taqdim etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.B.Xolmirzayev "Til va uning me'yorlari", Nukus, 2009
- 2.M.U.Salmonov "Nutq madaniyati va adabiy til", Andijon, 2018 y
- 3.O. Nosirov, O. Sobirov. Xalq ijodi xazinasini. Toshkent. 1986

4.Родина, Е. Ю. Using literature in teaching English / Е. Ю. Родина. –

Текст:

непосредственный // Молодой ученый. – 2010. – № 5 (16). – Т. 2. – С. 188-192. – URL: <https://moluch.ru/archive/16/1567/>

[.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/matnshunoslik-davr-tablari-darajasidami-davra-suhbati-2010](https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/matnshunoslik-davr-tablari-darajasidami-davra-suhbati-2010)

[www.asian-efl-journal.com](http://www.asian-efl-journal.com)

[www.insights-into-tefl.blogspot.com](http://www.insights-into-tefl.blogspot.com)

[www.literacynews.com/2009/12/using-literature-with-english-language](http://www.literacynews.com/2009/12/using-literature-with-english-language)

[www.maria-spelleri-manatee-community.html](http://www.maria-spelleri-manatee-community.html)